I.L.Tukkel A.V.Surina va N.B.Kultin bilan birgalikda innovatsion faoliyatni «eksperimental ishlanmalar, ilmiy (ilmiy-tadqiqot) va ilmiy- texnik, ixtirochilik faoliyatiga yo'naltirilgan faoliyat sifatida aniqlaydilar: aynan yangi yoki yangi iste'mol xususiyatiga ega mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va bozorda realizatsiya qilish; yangilarini yaratish yoki joriy qilish yoki uni ishlab chiqarish, ommalashtirish va foydalanishning mavjud uslublari (texnologiyalari)ni modernizatsiya qilish; xarajatlarni tejash yoki bozorda talab etilgan mahsulotlarni ishlab chiqish va sotish hajmini o'sishi asosida mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish, ishlab chiqarishni tashkil etishda mahsuldor, jarayonli, marketing, tashkiliy innovatsiya (yangilik)larni joriy etish»[16. 416 c.]. Mualliflar «innovatsion dasturlar va loyihalar, innovatsion mahsulotlar»ni innovatsion faoliyatning obyekti sifatida aniqlab, innovatsion faoliyatni mahsulot, jarayonli, marketing va tashkiliy yo'nalishlarga ajratadilar.

L.N.Ogoleva innovatsion faoliyatni «yangiliklarni ishlab chiqish, o'zlashtirish, joriy etish, diffuziyalanish va tijoratlashirishning maqsadga yo'naltirilgan tizimi sifatida bu jarayonni tizimlilik, komplekslilik, ko'p variantlilik va muqobillik» deb, talqin etadi[17. 238 c.]. Muallif innovatsion faoliyatni «ilmiy g'oyalarni tug'ilishidan uning tijoratlashigacha» bo'lgan innovatsion faoliyat chegaralarini aniqlaydi.

F.F.Bezdudnyy G.A.Smirnova va O.D.Nechayvalar bilan hamkorlikda innovatsiya faqat ehtimoliy salbiy oqibatlardan tashqari ijobiy natijaga ega bo'lgan, aksincha, u o'z mazmunini yo'qotishini ta'kidlab, «innovatsiya» va «innovatsion faoliyat» tushunchalarini bozorda mavjud talabni qondirishga qodir bo'lgan va iqtisodiy samara keltiradigan inson hayot faoliyatining har qanday sohasidagi yangi g'oyalarni joriy qilish jarayoni bilan bog'laydilar[18. C. 3-13.].

N.M.Sыsarova innovatsion faoliyatni «innovatsion g'oyalarni qidirish va tanlash, ularga yangiliklarning asosini ishlab chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va ko'paytirishni o'z ichiga oluvchi ishlar majmui» sifatida talqin etadi. Muallifning fikricha, «yangiliklarni kiritish jarayoni faoliyatning turli sohalarini qamrab oladi: ya'ni, ilmiy-texnik, moliyaviy, axborot, marketing va uning realizatsiya qilinishida tashkilotlar o'rtasida turli xil o'zaro munosabatga kirishuvchilar ishtirok etadi: ilmiy-tadqiqot institutlari, moliyaviy va konsalting tashkilotlari, venchur firmalari, sug'urta kompaniyalari»[19. 195 c.].

I.T.Balabanov innovatsion faoliyatni «yakuniy ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish yoxud bozorda realizatsiya qilinuvchi yangi yoki takomillashgan mahsulotlardagi boshqa ilmiy-tadqiqot yutuqlari, amaliy faoliyatda foydalaniladigan takomillashgan texnologik jarayon hamda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning bu bilan bog'liqligiga yo'naltirilgan jarayon» sifatida izohlaydi[20. 304 c.].

«Innovatsiya» kategoriyasining ijtimoiy sohada ommalashishi uning qo'llanish doirasini kengaytirdi. P.N.Zavlinning[21. c. 4-5.] tadqiqotlarida va A.Ye.Kogut[22. c. 6-8.] tahriri ostida chop etilgan to'plamda «innovatsiya» tushunchasini qo'llanilishi inson faoliyatining istalgan sohasidagi yangilikni ifodalash uchun, ya'ni obyektning mavjud holatidan farq qilishiga olib keluvchi istalgan o'zgarishga innovatsiya deb qarash mumkinligi ta'kidlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur qarashdan I.B.Gurkovning asarida keltirilgan: «Innovatsiya – g'oya (fikir) yoki amallar tarzining (tizim, dastur, qurilma, jarayon, mahsulot yoki xizmat) qabul qilinishi bo'lib, qo'llashga qabul qilayotgan tashkilot uchun ular yangilik hisoblanadi»[23. c. 8.]. Mazkur yondashuvga ko'ra innovatsiya deb, korxonalar, tashkilot darajasida turli xil faoliyat sohasidagi istalgan o'zgarish tushuniladi. Bizning fikrimizcha, «innovatsiya» tushunchasining bunday

yondashuvini yetarlicha chegaralangan deb aytish mumkin. Shunday ekan, «innovatsiya» atamasini yoritib berish va baholash bo'yicha yagona uslubiy yondashuv va tamoyillarning mavjud emasligini ta'kidlash mumkin.

V.I.Gunning ishida innovatsion faoliyat o'z ichiga innovatsion jarayon sifatida aks etuvchi texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy yangiliklarni ishlab chiqish va amalda o'zlashtirishni olishi ta'kidlangan[24. 328 c]. Innovatsion jarayonlardan tashqari u innovatsion faoliyatga «marketing tadqiqotlari, tashkiliy, axborot, konsalting, ijtimoiy va boshqa xizmat turlari»ni ham kiritadi.

I.Ya.Lujinskiy va M.P.Pereverzev «innovatsion faoliyat»ni «ilmiy- texnik va investitsion faoliyatni bir-biriga qo'shib, integratsiyalashgan tushuncha sifatida» ta'riflaydi[25. 172 c.]. Bunda muallif «innovatsion faoliyat» tushunchasini qarab chiqishda yangi texnologiyalar va tovarlarni yaratish va foydalanishning barcha davrini qamrab olishini ta'kidlab o'tadi.

«Innovatsion faoliyat»ning mufassalroq ta'rifi respublikamiz va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarida keltirilgan. Hozirgi vaqtda Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti tomonidan fan, texnologiyalar va innovatsiyalarga tegishli ma'lumotlarni olish va tahlil qilish vazifalarini yechish maqsadida rahbariyat tomonidan «innovatsiya» tushunchasining mohiyati ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, innovatsiya – bu bozorda joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot ko'rinishida olingan, amaliy faoliyatda foydalanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv bo'yicha innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir[26].

O'zbekistonlik olimlardan X.M.Abdusattarovaning fikricha, «yangilik kiritish – bu biron-bir faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarning rasmiylashtirilgan natijasidir»[27. B.10.].

F.B.Shakirovaning tadqiqot ishida «Innovatsiya – insonning aql- zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan, ayni vaqtda, iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgani intellektual mulk ko'rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g'oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir»[28. B. 13-14.], degan mualliflik ta'rifi shakllantirilgan. Agar innovatsion g'oya yaratilsa-da, ishlab chiqarishga tatbiq etilmasa, o'zining iqtisodiy nafililigini isbotlamasa, innovatsiya hisoblanmaydi. Yaratilgan innovatsiyalar tijoratlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb, hisoblash mumkin. Ushbu ta'rif mazmuniga ko'ra, innovatsiyalar g'oyalar, ishlanma, kashfiyotlardan iborat bo'lmay, balki innovatsiyalar tarkibiga umumtaraqqiyotga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va mulk obyektlarini samarali amalga oshirishga oid tashkiliy-boshqaruv tavsifidagi mutlaqo yangicha innovatsion yondashuv va tamoyillarni o'zida mujassam etadi.

A.J.Qaxxorovning yondashuviga ko'ra, marketingni iqtisodiy faoliyati sifatida olib qaralganda unda qo'llaniluvchi yangi vosita va usullar ham innovatsion faoliyat hisoblanadi. Shunga ko'ra, muallifning fikricha, «Innovatsion marketing – yangi g'oyalarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirib borish hamda innovatsion texnologiyalar yordamida tijoratlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat»[29. B.11], deb ta'rif berilgan.

G.B.Shanazarovanning yondashuviga ko'ra, innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy-texnik salohiyat tushunchasi bilan uzviy aloqador kategoriya ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, «innovatsion salohiyat – xo'jalik

yurituvchi subyektning mansubligi, mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy maqomi, o'lchamidan qat'iy nazar ixtiyoriy xo'jalik yurituvchi subyektning yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, kashfiyot, ixtirolarni, foydali modellarni yaratish faoliyatida samarali qo'llash bo'yicha mavjud intellektual, moliyaviy, kadr, axborot, moddiy-texnik va boshqa resurslari hamda imkoniyatlari yig'indisidir»[30. B.11].

I.I.Ergashevning yondashuviga ko'ra, «innovatsiya – bu muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv va boshqa turdagi samaralarni keltiradigan, amaliy faoliyatga joriy qilingan, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilinadigan, yangi iqtisodiy mahsulotda mujassamlashgan bilimlar o'zgarishining natijasi hisoblanadi»[31. B.25].

D.A.Raxmonov yangi g'oyalarni innovatsiyalar sifatida qabul qilish uchun innovatsiyaning o'lchov mezonini aniqlash va uni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Bu albatta innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish uchun iqtisodiy baholashga shart-sharoit yaratadi[32].

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda «innovatsiya» kategoriyasining mohiyatini yoritishda, biz, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratdik

- innovatsiya tushunchasi yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratishni o'zida ifodalaydi;

-turli ko'rinishdagi innovatsiyalar uchun umumiy (bazisli, amaliyotga tatbiq etiluvchi, mahsulotni diversifikatsiyalash, yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlar) bo'lgan ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini o'zida namoyon etadi. Mazkur bosqichsiz innovatsiya mavjud emas. Bu innovatsiya tushunchasining asosiy mazmunidir.

Ushbu xususiyatlar innovatsiyaning bevosita xossalari bo'lib, ularning yangiligi, ularni yangi ishlab chiqarishda qo'llay olinishi, iqtisodiy samara berishi va uning albatta, iste'molchilar talabiga javob bera olishidir.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uni quyidagicha talqin etamiz: «innovatsiya – bu yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir».

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat zamonaviy sanoat tarmoqlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun birinchi navbatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar paydo bo'ladi.

G.Pisano kompaniyalarda innovatsion strategiyalar va boshqa faoliyat o'rtasida kelishmovchilik sifatida innovatsion faoliyatni boshqarishning asosiy muammolari, ularni moliyalashtirish uchun innovatsion loyihalar o'rtasida ustuvorliklarni aniqlashning murakkabliklarini aniqlaydi. U ko'rsatilgan muammolarni hal qilish imkoniyati sifatida quyidagi funksional vositalarni ishlab chiqishni taklif etadi: «moliyaviy resurslarni taqsimlashning tashkiliy tarkibi va bajarilish tartibi, jarayonlar, innovatsion strategiyalar o'rtasida muvofiqlik va o'zaro aloqadorlikni ta'minlash; barqaror raqobat ustunligini

ta'minlashga yo'naltirilgan kompaniyalarning aniq maqsadlarining shakllanishi; bahoni shakllantirish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish; turli ko'rinishdagi innovatsiyalarni tanlash va realizatsiya qilishning parallel bajarilish tartibini joriy qilish; turli xil innovatsion strategiyalar o'rtasida balansni topish»[34. P. 44-54.].

R.Foster va S.Kaplanlarning fikricha, innovatsion faoliyatning asosiy muammosi bo'lib, «innovatsiyalarni olishning muqobil yo'llari hisobi va strategik rejalashtirishga yondashuv o'zgarishini hisobga olgan holda hal etishni taklif etib, tashqi muhit shart-sharoitiga bog'liqligi» hisoblanadi[35. 378 c.].

Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlab aytish mumkinki, innovatsion faoliyat – innovatsion g'oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo'llanilishi va amalga oshirilishini ta'minlovchi faoliyat.

V.P.Barancheev, N.P.Maslennikova, V.M.Mishinlarning nuqtai nazariga ko'ra, innovatsion faoliyatni boshqarishning xususiyatlari «bitta joyga to'plangan yuqori malakali mutaxassislarning oldingi bilimiga asoslangan holda yuzaga keladigan innovatsiyalar va innovatsion mahsulotlarni hayotiylik davri boshqarish obyekti bo'lib hisoblanadi»[36. 720 c.].

Ko'pchilik taniqli olimlar innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun eng qulay bo'lgan innovatsiyalarni paydo bo'lish tabiati va korxonalarni tashkil etish shakllarini yoritishga harakat qilganlar. Hozirgi vaqtda innovatsion jarayonlarni tavsiflovchi modellar ommalashgani quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- «texnologik turtki» modeli. Ushbu model uzoq davr mobaynida klassik hisoblanib, uni M.I.Tugan-Baranovskiy, Y.Shumpeter, G.Mensh kabi olimlar o'zlarining tadqiqotlarida rivojlantirdilar. Mazkur modelda innovatsiyalar manbai roliga fan va texnikaning yuqori darajadagi yutuqlari sifatida qaraladi. «Texnologik turtki» modeli bosqichlarning chiziqli va davriy ketma-ketligi shaklida namoyon bo'ladi. Bu model asosida ilmiy tadqiqot ishlanmalariga bog'liq chiziqli-ketma-ket jarayonlar olingan;

- «talabni chaqirish» modeli (market pull). Bu model tarafdorlari bo'lib, K.Frimen va D.Roman hisoblanadi. Ushbu model doirasida muvaffaqiyatli yangiliklar tijorati iste'molchilar talabiga fan sig'imi yuqori sanoat tarmoqlarining zamonaviy va mos ta'siri natijasida namoyon bo'ladi. Innovatsion jarayonlar asosi sifatida ilmiy tadqiqot konstruktorlik ishlanmalari yo'nalishini aniqlaydigan bozor talabini qarab chiqish hisoblanadi. Innovatsion jarayonlar tarkibi bosqichlarining ketma-ketligi chiziqli hisoblanadi;

- innovatsion faoliyatni biriktirish modeli (coupling). Uning asosida R.Rotuella, D.Moveri va boshqalarning ishlari yotadi. Ushbu model quyidagi tavsifdagi mavjud bosqichlarni o'ziga biriktiradi: ketma-ketlik, o'zaro munosabatlar, funksional alohidalik yangiliklar yaratish jarayonini chiziqli emasligini ko'rsatadi. Modelning asosida innovatsion faoliyatning resurslar sig'imi yuqori bo'lgan bosqichlari sifatida ishlanmalar va konstruksiyalar jarayonlari doirasida quriladi;

- innovatsion jarayonlarning integrallashgan modeli. Ushbu modelning asoschisi bo'lib, M.Aoki [37. C. 314-315.] hisoblanadi. U turli xil yo'nalishlarda ishlovchi bir guruh mutaxassislarning g'oyalari yaxlitligiga asoslanadi. Qulay yondashuv jarayonni tezlashtirishga asoslanadi. Shunday ekan, yangi tovarning bozorga kirishi ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, marketing, moliya va kompaniyalarning boshqa bo'limlarining uzviy hamkorligida eng samarali hisoblandi. Ushbu jarayonni nazorat qilish uchun tarmoqlararo ishchi guruh bo'lishi zarur;

- strategik tarmoqlar modelida innovatsion jarayonlar. Ushbu yo'nalish namoyondalari bo'lib, R.Kuper [38. P. 47-58.], K.Oppenlender [39. 176 c.] hisoblanadi. Oldingi modellardan farqi nafaqat funksional, balki institutsional yoki tarmoq tavsifiga ega. Model yakuniy maqsadi innovatsiya hisoblangan tashqi agentliklar (ta'minotchi, iste'molchi, raqobatchilar) bilan o'zaro ta'siri qarab chiqiladi.

Fan sig'imi yuqori tarmoqlarning shakllanish xususiyatlari tahliliga ko'plab asarlar bag'ishlangan, biroq ushbu ishlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda fan sig'imi yuqori tarmoqlarni identifikatsiyalash (aynan o'xshatish)ni nazarda tutuvchi yagona metodologiya mavjud emas. Bunda fan sig'imi yuqori tarmoqlarga tegishli mezonlarni asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

Shunday yo'nalishlardan biri ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar nisbati va muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bo'yicha fan sig'imi yuqori tarmoqlar bilan bog'liqlikda aloqadordir. Shunday ekan, A.Ye.Varshavskiyning fikricha, fan sig'imi yuqori tarmoqlarga tegishli hisoblandi, agarda «tarmoq faoliyatining natijaviy ko'rsatkichiga ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar nisbati sifatida hisoblangan fan sig'imini ifodalovchi ko'rsatkich umumiy darajada sanoat uchun o'ziga xoslikni yoki o'rtachani oshiradi»[40 C.60-69.]. Fan sig'imi yuqori tarmoqlarga tegishlilik mezonini shakllanishida I.E.Frolov ushbu tarmoqlarga «muvofiq mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar nisbati rivojlangan mamlakatlarning qayta ishlash sanoatida o'rtacha jahon ko'rsatkichini 1,2-1,5 martaga oshiradi va 3,5-4,5 %ni tashkil etadi»[41].

Fan sig'imi yuqori tarmoqlar tasnifining yana bir yo'nalishi bo'lib, korxonalarda kadrlar tavsifini baholash hisoblanadi. Shunga ko'ra, V.L.Makarov, A.Ye.Varshavskiy va L.A.Fedorovalarning fikricha, fan sig'imi yuqori tarmoqlar quyidagi munosabatlar asosida aniqlanadi:

«tarmoq personalining sanoat ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi ilmiy faoliyatda band bo'lganlar soni; ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarish personaliga, tarmoqning asosiy ishlab chiqarish fondlariga xarajatlar»[42. C. 146.].

Xulosa.

Bugungi kunda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turlari qatoriga quyidagilar kiradi: elektronika va radioelektronika sanoati, ofis uskunalari hamda hisoblash texnikasini ishlab chiqarish, nazorat va hisoblash asboblari, farmatsevtika mahsulotlari hamda tibbiyot jihozlari ishlab chiqarishi, shuningdek, uchish qurilmalari yaratish.

Bilimga asoslangan yangi iqtisodiyotni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadigan va xizmatlar ishlab chiqarishda fan sig'imi yuqori bo'lgan iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat: ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash tizimi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й.Шумпетер: пер. с англ.; предисл. В.С. Автономова. - М.: ЭКСМО, 2007. - 864 с.
2. Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики. – М.: Экономика, 1989.

3. Mensh G. Stalemate in technology: innovation overcome the depression. – Cambridge (Massachusetts, USA), 1979.
4. Менш Г. Базисные инновации и инновации совершенствования [Текст] / Г. Менш // Журнал экономики предприятия. – 1972. - № 42. - С. 291-297.
5. Менш Г. Технологический пат: инновации преодолевают депрессию [Текст] / Г.Менш. – М.: Экономика, 2001. – 211 с.
6. Нельсон Р., Уинтер С. Эволюционная теория экономических изменений. – М.: Дело, 2002.
7. Санто Б. Инновация как средство экономического развития: учебник [Текст] / Б.Санто: пер. с венгер. -М.: Прогресс, 2005. – 376 с.
8. Саудер У.Е., Нашар А.С. Руководство по наилучшим методам трансфера технологий // Управление инновациями. – М., Дело-лтд, 1995.
9. Друкер П. Бизнес и инновации[Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 с.
10. Друкер П.Энциклопедия менеджмента [Текст] / П. Друкер. - М.: Вильямс, 2004. - 432 с.
11. Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 350 с.
12. Твисс Б.Управление нововведениями [Текст] / Б. Твисс. – М.: Экономика, 2009. – 272 с.
13. Кристенсен К. / Решение проблемы инноваций в бизнесе. Как создать растущий бизнес и успешно поддерживать его рост [Текст] / Кристенсен К., Рейнор М. - М.: Альпина Паблишер, 2014. - 290 с.
14. Кристенсен К.Дилемма инноватора [Текст] / К. Кристенсен: пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2012. – 239 с.
15. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. 6-е изд., испр. и доп. [Текст] / Р.А. Фатхутдинов. - СПб.: 2011. - 448 с.
16. Туккель И.Л.Управление инновационными проектами: учебник [Текст] / И.Л. Туккель, А.В. Сурина, Н.Б. Культин, под ред. И.Л. Туккеля. – СПб.: БХВ-Петербург, 2011. - 416 с.
17. Оголева Л.Н. Инновационный менеджмент: учеб. пособие [Текст] / Л.Н. Оголева - М.: Инфра-М, 2010. - 238 с.
18. Бездудный Ф.Ф. Сущность понятия инновация и его классификация [Текст] / Ф.Ф. Бездудный, Г.А. Смирнова, О.Д. Нечаева // Инновации. - 1998. - № 2-3. - С. 3-13.
19. Цыцарова Н.М. / Инновационный менеджмент: учебное пособие [Текст] / сост. Н.М.Цыцарова. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 195 с.
20. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. [Текст] / И.Т. Балабанов. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
21. Завлин Г.Ш. Инновации в рыночной экономике // Гуманитарные науки. 1997, №3. с. 4-5.
22. Преобразование научно-инновационной сферы в регионе: понятийный аппарат / РАН. Институт социально-экономических проблем, Сер. Теория и практика управлений научно-инновационной сферой в регионе / Под. ред. А.Е.Когута. – СПб., 1995, с. 6-8.
23. Гурков И.Б. Инновационное развитие и конкурентоспособность. Очерки развития российских предприятий. – М.: ТЕИС, 2003. с. 8.
24. Управление инновациями: 17-модульная программа для менеджеров. Управление развитием организации. Модуль 7 [Текст] / Гунин В. И. [и др.]. – Москва: ИНФРА-М, 1999. – 328 с.

25. Лужинский, И. Я. / Инновационный менеджмент в малом бизнесе / И.Я.Лужинский, М. П. Переверзев, под ред. М.П. Переверзева. – Тула: Изд-во ТГПУ им. Л.Н.Толстого,1998. - 172 с.
26. Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development.Frascati Manual [Text]. Sixth edition. – OECD, 2002.
27. Абдусаттарова Х.М. Инновация стратегияси. Ўқув қўлланма - Т.: ТДИУ, 2011. 10-бет.
28. Шакирова Ф.Б. «Инновацион ривожланиш негизида барқарор иқтисодий ўсиш механизмини такомиллаштириш». Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. – Т.: 2018 й. 13-14-бетлар.
29. Қаххоров А.Ж. “Ўзбекистон автомобиль транспорти тизимида инновацион маркетинг фаолиятини такомиллаштириш”. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. – Т.: 2018 й. 11-бет.
30. Шаназарова Г.Б. «Саноат корхоналарида инновацион салоҳиятни бошқариш механизмларини такомиллаштириш». Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. – Т.: 2018 й. 11-бет.
31. Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш // Дисс. иқт. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Самарқанд: СамИСИ, 2018. 25-б.
32. Рахмонов Д.А. «Инновация: моҳияти ва уни молиялаштириш асослари» // «Халқаро молия ва ҳисоб» илмий электрон журнали. № 1, февраль, 2019 йил.
33. Вульфен Г. Запускаем инновации. Иллюстрированный путеводитель по методике FORTH [Текст] / Г. Вульфен: пер. с англ. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2014. - 256 с.
34. Pisano G.P.You need an innovation strategy [Text] // Harvard business rev. – Boston, 2015. – Vol. 93, N 6. – P. 44-54.
35. Фостер Р./Созидательное разрушение: Почему компании, «построенные навечно», показывают не лучшие результаты и что надо сделать, чтобы поднять их эффективность [Текст] / Фостер Р., Каплан. – М.: «Альпина Бизнес Букс» 2005 г. – 378 с.
36. Мишин В.М. Управление инновациями: учебник [Текст]/ В.М.Мишин, Н.П.Масленникова, В.П.Баранчеев. – М.: Юрайт, 2014. – 720 с.
37. Аоки М. Фирма в японской экономике. Информация, стимулирование и заключение сделок в японской экономике [Текст] / М. Аоки: пер. с англ. - СПб., 1995. - С. 314-315.
38. Cooper R.G.Maximizing Productivity in Product Innovation [Text] / R.G.Cooper, S.J.Edgett // Research Technology Management. - 2008. - March-April. - P. 47-58.
39. Оппенлендер К. Технический прогресс: воздействие, оценки, результаты [Текст] / К. Оппенлендер: пер. с англ. –М.: Экономика, 1981. - 176 с.
40. Варшавский А.Е.Наукоемкие отрасли и высокие технологии: определение, показатели, техническая политика, удельный вес в структуре экономики России [Текст] / А.Е.Варшавский // Экономическая наука современной России. - 2000. - №2. - С.60-69.
41. Фролов И.Э.Потенциал развития наукоемкого, высокотехнологичного сектора российской промышленности [Текст] / И.Э.Фролов // Проблемы прогнозирования. - 2004. - №1.
42. Варшавский А.Е.Наукоемкие отрасли и высокие технологии: определение, показатели, техническая политика, удельный вес в структуре экономики России [Текст] / А.Е.Варшавский // Экономическая наука современной России. - 2000. - №2. - С. 146.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).